

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI
HUZURIDAGI KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK
TADQIQOTLAR INSTITUTIDA 2026-YILDA BAJARILADIGAN
ILMIY-TADQIQOTLAR DASTURI**

Joriy yilning 30 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi raisi B.S.Hamrayev tomonidan Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida 2026-yilda bajariladigan ilmiy-tadqiqotlar dasturi tasdiqlandi. Dasturga muvofiq joriy yilda quyidagi dasturlar bajarilishi rejalashtirilgan:

Geoma'lumot / sputnik tasvirlari asosida qishloq xo'jaligi statistikasida hosilni baholash uslubiyotini yaratish;

ISO 3534-3:2013 (E/F) Statistika uslubiyatlar. Lug'at va shartli belgilar – 3-qism: Taribalarni rejalashtirish;

ISO 3534-4:2014 Statistika uslubiyatlar. Lug'at va shartli belgilar – 4-qism: Tanlanma kuzatuv;

Startup loyihalarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini baholash uslubiyotini yaratish;

Eksport va import narxlari indeksini hisoblash uslubiyotini takomillashtirish;

Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning iqtisodiy faoliyatini tanlanma kuzatuv usulida statistik tadqiq etishning uslubiyotini yaratish;

Turizm yordamchi hisoblarini shakllantirish uslubiyotini takomillashtirish;

Mikroma'lumotlardan ilmiy maqsadda foydalanish reglamenti va "secure access" modeli;

Milliy iqtisodiyotda kreativ iqtisodiyotning ulushini hisoblash (2025-yil ko'rsatkichlari asosida).